

Qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbolda “Olmaliq KMK” AJ rivojlanish ustuvorligi bo'yicha qisqacha ma'lumot

1. Dunyo bozori kon'yunkturasining tahlili.

Mis bo'yicha dunyo bozorining narxlar kon'yunkturasi birinchi o'rinda talab va takliflar dinamikasining kutilgan natijalari bilan belgilanadi. Bunda Lotin Amerikasi, xususan Chili, mis taklifini shakllantirmoqda, Osiyo ham, ayniqsa Xitoy talabni shakllantirmoqda. Boshqa so'z bilan aytganda, mazkur mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishini misga, binobarin misning narxlariga bo'lgan talab va takliflar balansini shakllantirishda belgilab beruvchi omillar deb hisoblash mumkin. Garchi mis va alyuminiy elektrotexnikada bir birini almashtira olsada, biroq tahlilchilarning fikriga ko'ra, alyuminiy bilan misni to'liq chiqarib tashlash mumkin emas.

2011 yilda narxlarning rekordli darajasiga erishilgandan so'ng, dunyo narxlarining keyingi (2012 yildan 2013 yilgacha) dinamikasi misga bo'lgan narxlarning pasayish mayliklarini ko'rsatmoqda.

2013 yil yakunlari bo'yicha misning o'rtacha narxi bir tonnasi uchun 16,9 % yoki 1 489 dollarga (8 810 dollardan 7 322 dollargacha) pasayib ketdi. Bunday mayllik 2014 yilda ham davom etib, yanvar-sentyabr oylari uchun misning o'rtacha narxi 5,4 % pasayib ketdi va bir tonnasi uchun 6 924 dollarni tashkil etadi.

Narxlar pasayishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

Mis ishlab chiqarish hajmlarini 2013 yilda umumiy dunyo hajmini 18,12 mln. tonnagacha yetkazgan holda 2011 yil hajmlariga nisbatan 13%ga oshirish;

XXR mis mahsuloti ishlab chiqaruvchilari tomonidan mamlakat ichkarisidagi iste'molchilarga mahsulot yetkazib berishni qisqartirish hisobiga tashqi bozorga keng ko'lamli kirib borishini amalga oshirish.

Dunyo bozorida narxlarning tebranib turishi munosabati bilan, xalqaro tahliliy kompaniyalar uzoq muddatli istiqbol uchun (2020 yilgacha) narxlarni chop etishdan xavotirlanib turibdilar.

Tahlilchilarning istiqbollari ko'ra, 2015 yilga mis uchun narx bir tonnasi uchun 6 200 dollargacha bo'lgan belgigacha pasayib ketishi mumkin, va bu asosan quyidagilarga bog'liq:

o'tgan yillarda sotilmagan hajmlari hisobiga dunyo bozorida misning 16% yoki 416 ming tonnaga ortiqligi bilan;

dunyoning asosiy mis ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada kengaytirilishi bilan.

***Ma'lumotnoma.** 2014 yilning avgust oyi yakunlari bo'yicha Peruda mis qazib olish 10,2%, yoki 118,5 ming tonnaga pasaydi, biroq sakkiz oy uchun 4,7%, yoki 24,6 ming tonnagacha oshdi. Peru kon sanoati va energetika ministri Eleodoro Mayorga Albaning xabar berishicha, mamlakat o'z pozitsiyalarini, 2016 yilga kelib “qizil metall” chiqarishni ikki baravarga oshirishni rejalashtirib, ushbu vaqtga kelib mamlakat mis ishlab chiqaruvchilarining kattaligi bo'yicha ikkinchisi sifatida o'z pozitsiyalarini tiklab oladi. Perucha mis ishlab chiqarish 2013 yildagi 1,4 mln.*

tonnaga nisbatan 2016 yilda 2,8 mln. tonnaga yetadi, deb oldindan xabar berdi ministr. Ushbu «irg'ish»ga, shuningdek boshqa konlarni kengaytirishga Las Bambas, Constancia va Ampliacin de Toromocho kabi loyihalar o'z hissalarini qo'shishlari kerak.

Japan Metal Bulletin ma'lumotlariga ko'ra, 2014 yilning avgustida Yaponiyada elektrolitik mi sishlab chiqarish 2013 yilga nisbatan 7%ga, yoki 133,09 ming tonnaga oshdi. Yaponiyada mis chiqarish ketma-ket yetti oy o'sib boradi.

2. 2020 yilgacha bo'lgan davrda kombinatning sezilarli holatini va rivojlanish tendensiyalarining tahlili.

Qisqa muddatli istiqbolga metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida kombinatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 20 maydagi "2016-2020 yillarda rangli va nodir metallarni chuqur qayta ishlash negizida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2533-sonli Qarorida belgilab berilgan.

Mahsulotlarning nomlari va javobgar ijrochilar	2020 yilda 2016 yilga o'sish surati (eksportning boshlanishiga), %
Katodli mis	106,2 %
Mis kuporosi	126,3 %
Mis katankasi	116,7 %
Mis sim	148,1 %
Mis quvurlar ("Angren quvur zavodi")	142,5 %
Quvur o'tkazgichlar va isitish tizimlari uchun tartibga solib turuvchi armatura ("AWP" MCHJ QK)	2 baravarga
Misdan tayyorlanadigan kontaktlar va klemmlar ("AWP" MCHJ QK)	15 baravarga
Shtamplangan va quyma latun buyumlar (fitinglar) ("AWP" MCHJ QK)	1,5 baravarga
Kalitlar va qulf o'zaklarini tayyorlash serdechnik ("AWP" MCHJ QK)	2 baravarga
Metall ruxi	132,8 %
Qo'rg'oshin korpusli smesitellar ("AWP" MCHJ QK)	1,5 baravarga
Ruxli belila (rux oksidi)	2,5 baravarga
Molibden uch oksidi	104,5 %
Metall molibdeni	2 baravarga
Metall volframi	5,6 baravarga
Texnik selen	136,8 %
Texnik tellur	108,7 %
Ammoniy perrenatidagi reniy	102,9 %
Texnik kadmiy	110,5 %

2016 yil 10 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida sement zavodining qurilishi to'g'risida"gi PQ-2628-sonli Qarori imzolanib, unda 2018 yilning dekabr oyida 1,5 mln. tonna sement loyihaviy quvvatga ega bo'lgan sement zavodini ishga tushirish nazarda tutilgan.

Investitsion loyihani amalga oshirish doirasida "Olmaliq KMK" AJ va Dal Teknik Makina Ticaret ve Sanayi A.S. kompaniyasi (Turkiya) o'rtasida umumiy qiymati 203,1 mln. dollarlik "tayyor holda" shartlari asosida texnologik qismlarning ishchi hujjatlarini ishlab chiqish, uskunalarni yetkazib berish va shefmontajlash, qurilish-montajlash va ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish bo'yicha import kontrakti imzolandi. Infratuzilmaning qurilishi va kombinatning boshqa harajatlari uchun 9,7 mln. dollar miqdoridagi mablag'lar nazarda tutilgan.

2020 yilga kelib sement ishlab chiqarish hajmlari 2,0 mln. tonnagacha yetadi.

3. 2030 yilgacha bo'lgan davrda kombinatni rivojlantirish istiqboli.

Kombinatni uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish «Yoshlik-I» koni rudalarini qayta ishlashga jalb qilish borasidagi loyihani amalga oshirish bilan bog'liq.

Hukumat qarorining loyihasi instantsiyalarida ishlab chiqish bosqichida turibdi.

